

Safarov Bobirjon Baxodir o'g'li,
Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy
instituti tayanch doktoranti

TARIX FANINI MAKTABLARDA KASBIY RIVOJLANISH SOATIDA O'QITISH METODIKASINI XORIJIY TA'LIM TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

UO'K: 372.893

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_9_4](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_9_4)

SAFAROV B.B. TARIX FANINI MAKTABLARDA KASBIY RIVOJLANISH SOATIDA O'QITISH METODIKASINI XORIJIY TA'LIM TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Maqolada Kasbiy rivojlanish soatida tarix fanining o'qitish metodikasida xorijiy ta'lim texnologiyalarining qo'llash samaradorligining muammolari va yechimlari o'rganilgan. Tadqiqotda KRS tadbirlarida tarix fani o'qituvchilariga katta til modellari ya'ni AI texnologiyasi, AR texnologiyasi, fikrni dalillashga o'rgatuvchi FSMU modeli, o'quvchilarni tahlil qilishga undovchi va mustaqil o'rganish ko'nikmasini shakllantiruvchi Wolfgang Klafki nazariyasini qo'llashning samarali jihatlari o'rganilgan. Shu bilan bir qatorda bu texnologiyani qo'llashdagi muammolar va omillar ham yoritilgan. Muammolarni bartaraf etish uchun muallif tomonidan taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: KRS, metodika, AR texnologiya, AI texnologiya, Klafki nazariyasi.

САФАРОВ Б.Б.-У. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ УЧЕБНОГО ПРЕДМЕТА ИСТОРИИ В ЧАСАХ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В ШКОЛАХ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

В статье исследуются проблемы и пути повышения эффективности применения зарубежных образовательных технологий в методике преподавания предмета «История» в Часах профессионального развития. В работе рассматриваются аспекты интеграции крупных языковых моделей (технологии искусственного интеллекта — AI), инструментов дополненной реальности (AR), модели FSMU, формирующей умение аргументировать мнение, а также теории Вольфганга Клафки, способствующей развитию аналитических способностей и навыков самостоятельного обучения у учащихся. Кроме того, автор освещает трудности и факторы, влияющие на применение этих технологий. По результатам исследования предложены рекомендации и выводы, направленные на устранение выявленных проблем.

Ключевые слова и понятия: Часы профессионального развития (ЧПР), методика, AR-технология, AI-технология, теория Клафки.

SAFAROV B.B. THEORETICAL FOUNDATIONS FOR ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING METHODOLOGY OF THE SUBJECT OF HISTORY DURING PROFESSIONAL DEVELOPMENT HOURS IN SCHOOLS BASED ON FOREIGN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES.

This article explores the challenges and solutions related to the effectiveness of employing foreign educational technologies in teaching methodology for the subject of History during professional development hours. The study examines the integration of large language models (AI technologies), augmented reality (AR) tools, the FSMU model that fosters evidence-based thinking, and Wolfgang Klafki's theory, which promotes analytical skills and independent learning habits among students, within professional development activities for History teachers. The paper also highlights the barriers and influencing factors associated with the application of these technologies. Based on the findings, the author proposes a set of recommendations and conclusions to address these issues.

Key words and concepts: Professional development hours (PDH), methodology, AR technology, AI technology, Klafki's theory.

Kirish. Rivojlangan ta'lim tizimi uzluksiz o'zgarishlar va innovatsion yondashuvlar natijasida vujudga keladi. Shu jarayonda ijtimoiy fanlar, xususan, tarix fani ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirilayotgan metodikalarga muhtojdir. Bu metodikalar nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning tarixiy tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, tarix fanini maktablarda kasbiy rivojlanish soatlari doirasida xorijiy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda fan o'qituvchilariga metodik ko'mak ko'rsatish va amaliy yechimlar taklif etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Bugungi kunda o'rta maktab ta'lim tizimida tarix fanini darslarini samarali tashkil qilish jarayonida bir qator muammolar ko'zga tashlanadi. Bunga quyidagilarni misol tarzda keltirish mumkin:

1. Hali ham ko'plab tarix darslari ma'ruza shaklida o'tilmoqda bu esa tarix darslari sifatini oshirmaydi. Tadqiqotchilar Fiorella va Mayer leksiyalarning kognitiv samaradorligi cheklash o'quvchilar ma'lumotlarni passiv qabul qilganliklari uchun ularni yodda saqlashda muammolarga duch kelishini va mavzuni chuqur tushunish doirasini kamaytirishini eslatib o'tadilar¹.

¹ Fiorella, L., Mayer, R. E. Learning as a Generative Activity: Eight Learning Strategies that Promote Understanding. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – P. – 226.

O'zbekistonda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish sust darajada bo'lib interaktiv metodlar, raqamli vositalar va multimedia resurslaridan foydalanish hali keng ommalashmagan. O'zbekiston ta'lim tizimida zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanish G'arb davlatlaridan ortda qolmoqda statistik ma'lumotlarda keltirib o'tilgan².

2. O'qituvchilarning yetarli metodikaga ega emasligi va zamonaviy yondashuvlardan xabardor emasligi o'quvchilar bilan ishlash samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi³.

3. Tarix fani o'qituvchilari fanga oid zamonaviy darsliklar, qo'llanmalar va metodik materiallar bilan to'la ta'minlanmaganligi ham ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

4. Ba'zi tarix darslarining mavzularning hayotiylikdan yiroqligi, ularni yoritishdagi noxolisliklar, hamda ba'zi mavzular o'quvchilarda vizual taassurot uyg'ota olmasligi ularni fanga nisbatan qiziqishlarini pasaytiradi.

Ushbu muammolarga javob topish, o'quvchilarni dunyoqarashini rivojlantirish uchun tarix fani o'qituvchilarining malakasini xorijiy ta'lim texnologiyalar yordamida malakasini oshirish dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Kasbiy rivojlanish kuni (KRK) va Kasbiy rivojlanish soati (KRS) kabi tadbirlar aynan shu masalalarga yechim berish, pedagoglarimizga meto-

² UNESCO. Digital Education in Central Asia. – Paris: UNESCO Publishing, 2022. – P. – 68.

³ Darling-Hammond L., Richardson N. Teacher learning: What matters? // Educational Leadership. – 2009. – Vol. 66, No. 5. – P. 46–53.

dik ko'mak berish uchun tashkil qilinmoqda. Kasbiy rivojlanish soati tadbirlari pedagoglarga metodik yordam berishning asosiy bosqichi hisoblanib unda yetakchi o'qituvchining KRK tadbirlarida o'rgangan bilimlarini KRS tadbirlarida to'g'ri qo'llashida xorijiy ta'lim texnologiyalari va metodlardan foydalanishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Dunyo tarix ta'limi tizimida tarixiy tafakkur, tanqidiy fikr, muammoli ta'lim texnologiyalari, tarixiy tafakkur kabi usullar yordamida tarix fanini o'qitish hozirda tobora ommalashib bormoqda, agar biz bu usullardan foydalanishni nafaqat qo'llay olish balki ularni rivojlantirsak bunda bizning tarix darslarimizning samaradorligi oshishi, o'quvchilarning bilimida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar bo'lishi kutiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Hozirgi davr tarix ta'limida innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash pedagogik yondashuvlarni tubdan yangilash zarurligini ko'rsatmoqda. Shuning bilan bir qatorda o'quvchilarning maktabdagi farovonligini ta'minlash ham zudlik bilan hal etilishi kerak bo'lgan masalalar sirasiga kiradi. "O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlar odatda o'quvchilarning ruhiy salomatligi va ruhiy-ijtimoiy farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, maktab o'qituvchilari hali ham an'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishlariga qaramay, ota-onalar ularni farzandlarining qo'llab-quvvatlovchisi sifatida ko'radilar"¹. O'qituvchilarni dars o'tish metodikasini rivojlantirish uchun kerakli va mos xorijiy tajribani tanlash eng qiyin va mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotimizda bizning ta'lim tizimimizga mos keluvchi bir qator metod va yondashuvlarni ko'rib chiqamiz: Zamonaviy tarix ta'limida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida ilg'or texnologiyalar va nazariy modellar muhim o'rin egallamoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt (SI), kengaytirilgan reallik (AR), va nazariy pedagogik texnologiyalar tarix fanini zamonaviylashtirish, tanqidiy fikrlash va tarixiy tafakkurni shakllantirishda salmoqli imkoniyatlar yaratmoqda. Gos-sard va boshqa olimlar sun'iy intellekt, xususan yirik til modellari (LLM – Large Language Models) yordamida o'qituvchilarning ilmiy-analitik

salohiyatini oshirish, dars mazmunini boyitish va tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish borasida sezilarli afzalliklarni ta'kidlaydilar. LLM-lar tarix fanining kontseptual murakkab jihatlarini osonlashtirishga xizmat qilib, o'quvchilarda ko'proq mustaqil izlanish, tahliliy fikrlash va kontekstual anglash jarayonlarini yaxshilaydi. Bu jihatlar Yevropa Kengashi tomonidan ilgari surilgan sifatli tarix ta'limi tamoyillari bilan hamohangdir, chunki ularning fikricha, o'quvchi faktlarni yodlash emas, balki tarixiy manbalarni tahlil qilish, ko'p nuqtai nazarni solishtirish va o'z pozitsiyasini asoslash qobiliyatini egallashi kerak. AR texnologiyalari bo'yicha Apriyanto, Kailie Maharjan va Zhang Wei olib borgan tadqiqotlar esa tarixiy voqealarning vizual ifodasi orqali murakkab tushunchalarni soddalashtirish, o'quvchilarning xotirasida mustahkam saqlash va darsga qiziqishni oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Ularning ishlari AR texnologiyasi o'quvchini passiv qabul qiluvchidan faol ishtirokchiga aylantiruvchi vosita sifatida ishlayotganini isbotlaydi. Bu yondashuv ham Klafki ilgari surgan kategorik bildung modeli tamoyillariga uyg'un bo'lib, shaxsiy rivojlanish, tanqidiy tahlil va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishni ko'zlaydi. O'zbek tadqiqotchilaridan Boymirzayev X. tomonidan taklif etilgan FSMU (fikrlash–so'zlash–munozara–ulashish) modeli ham o'quvchilarda tarixiy tafakkur va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu model tarixiy faktlarni ko'p qirrali talqin qilish, bahsli mavzularni ochiq muhokama qilish va tarixiy hodisalarga shaxsiy nuqtai nazardan yondashishni shakllantirishni maqsad qiladi.

Shuningdek, Klafki nazariyasida taklif etilgan material va formal ta'lim yondashuvlarini integratsiyalovchi kategorik Bildung modeli tarixiy bilimlarni o'zlashtirishdan tashqari, o'quvchining ongli va tanqidiy fikrlovchi subyekt sifatida shakllanishini ko'zda tutadi. Bu esa tarix fanining jamiyatda demokratik qadriyatlar, tolerantlik va ko'p nuqtai nazarni tushunish orqali fuqarolik ongini rivojlantirishdagi o'rnini kuchaytiradi.

Tadqiqotning maqsadi. Umumta'lim maktablarida tarix fanini kasbiy rivojlanish soatlari doirasida xorijiy ta'lim texnologiyalarini integratsiyalash asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish, pedagoglarning metodik salohiyatini yuksaltirish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish.

¹ Maktablarda o'smirlarning ruhiy salomatligi va ruhiy-ijtimoiy farovonligi. – Toshkent: YUNISEF O'zbekiston vakolatxonasi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, 2022. – 56 b.

Tadqiqotning predmeti. Kasbiy rivojlanish kuni (K RK) va kasbiy rivojlanish soati (KRS) jarayonida tarix fanini o'qitishda xorijiy ta'lim texnologiyalari va innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanishning mazmuni, shakl va metodlari.

Tadqiqotning obyekti. Umumiy o'rta ta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish soati tadbirlari jarayonidagi metodik faoliyati.

Tahlillar va muhokamalar. Tadqiqotchi Julia M. Gossard o'zining ilmiy maqolasida hozirgi kunda ko'plab akademik doiralar SI lardan foydalanishni tanqid qilayotgani ulardan foydalanishda qarshi ekanligini aytadi. Hattoki hamkasblari tomonidan bu kabi dasturlarga qarshi chiqmayotgani uchun keskin tanqid qilingan. Tadqiqotchi SI vositalarining ayniqsa tarix fani o'qituvchilarining malaka oshirishida, darslarga tayyorgarlik ko'rishlarida vaqtni tejash kabi foydali jihatlarni asoslab o'tadi. Katta til modellari (LLM) yani SI tobora murakkab va ommabop bo'lib borar ekan, tarix fanidan dars beruvchi o'qituvchilar imkoniyatlar bilan birga yuzaga kelgan muammolarni ham hal qilish uchun katta ahamiyatga ega generativ jumladan:

- tadqiqot imkoniyatlarini kengaytirish,
- shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribalarini yaratish,
- hujjat va dars ishlanmalarini ishlashni soddalashtirish imkonini beradi¹.

Tadqiqotchi tarix fani o'qituvchilarining malakasini oshirish uchun SI kabi texnologiyalaridan foydalanish ularning shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini yozadi. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda SI kabi vositalardan qo'rqish va u o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini aytib o'tish lozim chunki bir paytlar Vikipediya sayti yaratilganda ham aynan shu kabi tanqidlar tarqalganini hisobga olsak, SI o'qituvchilarga juda katta yordam beradi. O'qituvchilar izlayotgan ma'lumotlarni qidirish ishlariga sarflanayotgan vaqtlarini sezilarli qisqartirgan. Shuningdek, SI lardan to'g'ri foydalanish, aniq izlanish natijalarini olish uchun to'g'ri prompt yozish ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga

ega. Hozirgi kunda Yevropada to'g'ri prompt yozishni o'rgatuvchi kurslar mavjud. Bu kurslarda ma'lumotlarni aniq topish yo'llari tinglovchilarga o'rgatiladi. Aynan shunday kurslarni mavjudligi tarix fani o'qituvchilarning KRS soatlarini yanada samarali qilishini va o'qituvchilarning malakasini sezilarli oshirishida muhim rol o'ynaydi. Agarda yetakchi o'qituvchilari shu ko'nikmaga ega bo'lsa ularning darslari yanada samarali bo'ladi.

Tadqiqotchilar Apriyanto, Kailie Maharjan, Zhang Wei tarix fani o'qituvchilarining malakasini oshirishda AR texnologisini o'rni haqidagi tadqiqot olib bordilar. AR o'zi bu nima? AR (Augmented Reality) — bu kengaytirilgan reallik texnologiyasi bo'lib, u real dunyo elementlarini raqamli ma'lumotlar bilan to'ldiradi va ularga yangi o'lcham qo'shadi. Ya'ni, foydalanuvchi atrofidagi jismoniy muhitga virtual obyektlar, matnlar yoki animatsiyalar qo'shiladi, lekin bu foydalanuvchini real muhitdan ajratilmaydi. AR texnologiyasi real va virtual dunyoni birlashtirib, interaktiv tajriba yaratadi. AR texnologiyasi yordamida o'quvchilar diqqat e'tibori tezroq va uzoq vaqt ushlab turiladi. O'quvchilar ham matnli ma'lumotdan ko'ra vizual ma'lumotlarni tezroq tushunadilar. Orttilirilgan bilim ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib boradi. Tarixiy voqealar va tushunchalar murakkab va mavhum bo'lishini hisobga olsak, ularni an'anaviy usullar orqali tushunishni qiyinchiliklarni paydo qilishi mumkin. AR texnologiyasi bu tafovutni bartaraf etib, tarixiy kontekst va ssenariylarni yanada aniq va qiziqarli tarzda vizual ko'rsatishga imkon beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv va multimedia vositalari mavhum tushunchalarni yanada tushunarli va hayotga yaqin qilish orqali o'quv natijalarini yaxshilashi mumkin².

Tadqiqotchilar AR texnologiyasidan foydalgan holda o'quvchilarning bilim saviyasini 35% foizgacha ko'tarishgan. Bu esa hozirgi kunda tarix faniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish kerakligini isbotlaydi. Tarixiy artefaktlarning surati va video ko'rinishidan ko'ra ularning 3D ko'rinishi orqali ularni o'rganish o'quvchilarda aniq taassurot paydo qiladi. Shuning bilan birga ular tarixiy buyum yoki jarayonlarni tushunishlari osonlashadi. Lekin bu

¹ Gossard, J. M. Teaching History in the Time of Generative AI [Elektron resurs]. – URL: <https://www.historians.org/perspectives-article/empowering-citizens> (kiritilgan sana: 2025.08.07).

² Apriyanto A, Maharjan K, Zhang W. Implementation of Augmented Reality Technology in History Learning: Experimental Study // Journal of Computer Science Advancements. – 2024. – T. 2, № 4. – C. 222–230.

texnologiyadan foydalanish imkoniyati birmuncha cheklangan, chunki uskunalar maxsus plan-shet va ko'zoynak talab etiladi. Azronroq alternativlaridan ham foydalanish imkoni mavjud lekin barcha maktablarni ushbu texnologiyalar bilan ta'minlay olmaslik bu kabi zamonaviy metoddan foydalanish imkoniyatini kamaytiradi. Agarda bu texnologiyadan foydalanilsa dars sifati yanada yaxshilanadi. Shuning bilan birga o'qituvchilar bu texnologiyadan foydalana olishlari uchun albatta o'zlari ham buni qo'llay ilish mahoratiga ega bo'lishlari lozim. Shu sababli KRS soatlarida AR texnologiyasidan ularga bilim berilsa, KRS tadbirlari takomillashadi.

O'quvchilarni o'z fikrini isbotlashga o'rgatadigan pedagogik texnologiyalar, xususan, FSMU texnologiyasi tinglovchilarni o'z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikriga boshqalarni ishontirishga, ochiq-oshkora bahslashishga, egallagan bilimlarni tahlil qilishi, ularni qay darajada egallaganligini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Ushbu texnologiya tinglovchilarga qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etish tartibida amalga oshiriladi¹.

FSMU bosqichlari:

Bosqich	Mazmuni
F – Fikr	O'z fikringizni aniq va qisqa bayon eting
S – Sabab	Nega bu fikrga egasiz? Sababini ko'rsating
M – Misol	Sababingizni isbotlovchi misol yoki dalil keltiring
U – Umumlashtirish	Fikringizni yakunlab, xulosa chiqaring

KRS soatlarida o'qituvchilarga o'z fikrlarini sodda, tushunarli va dalillar bilan aniq ifodalash uchun FSMU kabi metodlardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish ularning darslarda tezkor va dalillar asosida fikrlash malakasini oshiradi. Ushbu metod aniq fanlarda yozma shaklda qo'llanilsada lekin og'zaki usulda ayniqsa ijtimoiy fanlarda ham yaxshi samara beradi. Ijtimoiy fanlar doirasidagi darslarda bahslar, munozaralar ko'p uyushtirilgani uchun o'qituvchilar o'z o'quvchilariga fikrlarini dalillar asosida qo'llashlari tanqidiy fikrni va asossiz fikr-

lar bilan o'quvchilar ongiga noto'g'ri ma'lumotni yodda saqlashlarini oldini oladi. Chunki aytilgan ilmiy fikr aniq, asosli bo'lsagina sinfda sog'lom raqobat bo'ladi.

Tadqiqotchilar Anne Helene va Hoyland Mork Shvetsiya va Norvegiyada milliy o'quv dasturlari tarix ta'limining mazmuni va shaklini o'rganish vaqtida shuni anglab yetishdiki, Tarix ta'limi dasturlari keng siyosiy jarayonlar natijasida shakllangan bo'lib, tarix ta'limi yuzasidan keng jamoatchilik muhokamalari bo'lgan. Ushbu mamlakatlarda XX asrning 60-yillarida tarix fanini o'qitishda shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy ong, va umumiy bilim asosiy o'rinda hisoblangan. Bir oz vaqt o'tgach qarashlar o'zgarib ijtimoiy fanlarning o'qitish uslubi ham takomillashib boradi. Tadqiqotchilar Wolfgang Klafki nazariyasi va uning tarix ta'limidagi o'rnini quyidagicha tushuntirganlar. Bu davlatlarda ta'limning asosiy maqsadi bildung hisoblanadi. "Bildung" — bu shaxsning bilimli, axloqli va jamiyatga foydali inson bo'lib shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda darslikdagi ma'lumotlarni yod olish emas, balki:

- mustaqil fikrlash;
- tanqidiy qarash;
- ijtimoiy mas'uliyat;
- axloqiy ongni rivojlantirish muhim

sanaladi.

Klafki nazariyasiga ko'ra material bildung va formal bildung birlashtiriladi. **Material bildung** – asosiy e'tibor o'quvchiga emas balki mavzuga qaratiladi. Asosiy maqsad esa ko'proq bilim berish va kontekstni yodlatish orqali ta'lim berish. **Formal bildung** – E'tibor o'quvchining fikrlash, tahlil qilish, o'rganish usullarini o'zlashtirishiga qaratiladi. Ta'limning maqsadi: o'quvchini mustaqil fikrlovchi, faol shaxs sifatida tarbiyalash hisoblangan.

Wolfgang Klafki esa material va formal bildunglarni birlashtiradi va kategorik Bildung modelini yaratadi. Mazmun + o'quvchi = kategorik Bildung. Bu nazariyaga ko'ra o'rganilayotgan mavzu yoki muammo dolzarb va hayotiy bo'lishi lozim. O'quvchi bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, uning o'zi mavzuni tahlil qiladi, tushunadi va baholaydi².

¹ Boymirzayev X.K. Tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish. – Namangan: Namangan davlat universiteti, 2024. – 27 b.

² Anne Helene and Hoyland Mork. The Why, what, and How, of History Education in Norwegian and Swedish History Curricula for Upper secondary schools (approximately 1920– 1960). Scandinavian Journal of History. 2024, VOL. 49, NO. 2. - P. 218–240.

1-jadval. Qiyosiy tahlil: Shvetsiya, Norvegiya va O'zbekiston tarix ta'limi

Asosiy mezonlar	Shvetsiya	Norvegiya	O'zbekiston
Ta'lim maqsadi	Umumiy bilim, tanqidiy fikrlash, demokratik qadriyatlar	Mustaqil fikrlovchi shaxs, faol o'quvchi	Vatanparvarlik, milliy g'urur
Metodik yondashuv	Ilg'or pedagogika, individual loyiha, tarixiy manbalar bilan ishlash	Faol o'quvchi modeli, o'zaro muloqot, tanqidiy tahlil	An'anaviy yondashuvdan interfaol metodlarga o'tish bosqichida
Milliy ideologiya	Millatchilikdan uzoq, ko'proq global va demokratik qadriyatlar	Ilgari milliy ruh kuchli, keyinchalik ochiq va tanqidiy yondashuv	Milliy g'oya va qadriyatlar asosiy o'rinda
Tarixshunoslik ta'siri	Akademik tarixshunoslik bilan uyg'un	Tarixshunoslikdagi o'zgarishlar o'quv dasturiga kuchli ta'sir qilgan	Tarixshunoslik ko'proq davlat siyosati bilan uyg'unlashgan
O'quvchi roli	Faol ishtirokchi, izlanuvchi, bahslashuvchi	Mustaqil fikrlovchi, tanqidiy tahlil qiluvchi	Ko'proq bilim oluvchi
Baholash usullari	Loyiha, tahlil, og'zaki va yozma fikrlar	Jarayonni baholash, tanqidiy fikr asosida	Test, yozma ishlar, shu bilan bir qatorda faol baholash usullari rivojlanmoqda

Wolfgang Klafki nazariyasi zamonaviy ta'limda, xususan tarix fanini o'qitish metodikasida muhim o'rin tutadi. KRS (Kasbiy Rivojlanish Soati) tadbirlarida o'qituvchilarga ushbu nazariyani amaliyotga joriy etishi samarali metodik yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi. KRS tadbirlarida o'qituvchilarning malakasini oshirish, zamonaviy pedagogik usullarni o'zlashtirish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun Klafki modelidan foydalanish sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin bular quyidagilar:

1. Tarixiy hodisalarni dolzarb masalalar bilan bog'lash.
2. Mavzularni tanlashda zamonaviylik tamoyili.
3. Manbalar bilan ishlash usullari.
4. Tanqidiy tahlil qobiliyatlarini rivojlantirish.
5. O'qituvchilarning metodik mahoratini oshirish.

Ushbu yondashuv tarix fani o'qituvchilarining kasbiy mahoratini yangi bosqichga ko'tarishga yordam beradi. O'quvchilarning esa tarix faniga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Natijalar. Olib borilgan ilmiy ish tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining — sun'iy intellekt (AI), kengaytirilgan reallik (AR), dalillashga asoslangan FSMU modeli va Wolfgang Klafki nazariyasining — tarix fanining metodik rivojiga qo'shayotgan hissi sezilarli darajada yuqoridir. Kasbiy rivojlanish soatlarida ushbu innovatsion yondashuvlarni qo'llash nafaqat o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini yangilaydi, balki ularning dars

jarayonini yanada samarali, interaktiv va kontekstga moslashtirilgan holatda tashkil etishga xizmat qiladi. AI texnologiyalari o'qituvchilarga tayyorgarlik bosqichida vaqtni optimallashtirish, shaxsiylashtirilgan ta'lim kontentini yaratish va mustaqil ilmiy izlanishlarni samarali olib borishga zamin yaratadi. AR texnologiyasining vizual ta'sir kuchi o'quvchilarning tushunishini chuqurlashtirish hamda tarixiy voqealarni kontekstli anglashiga yordam berishi mumkin. FSMU modeli esa o'qituvchilarda fikrni aniqlik bilan dalillash, tahlil qilish va xulosa chiqarish malakasini shakllantiradi. Klafki nazariyasining kategorik Bildung yondashuvi tarix ta'limida dolzarb mavzuni o'quvchi fikrlashi bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim mazmunining chuqurlashtirishiga olib keladi. Ushbu texnologik va nazariy yondashuvlarini birgalikda qo'llash tarix fani o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishining yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Xulosa.

Maqolada ta'kidlangan pedagogik yondashuvlar va ta'lim texnologiyalaridan quyidagicha xulosa qilish mumkin. Tarix fanini o'qitishda AI va AR vositalaridan oqilona foydalanish, shuningdek, dalillash va fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi nazariy modellarning tatbiqi tarix fani o'qituvchilarining KRS tadbirlarida malakasini oshirishda samarali omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. KRS tadbirlarida quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Tarix ta'limida texnologik innovatsiyalar samaradorlikni oshirish kerak. AI va AR texnologiyalari tarix fanining murakkab aspektlarini soda va interaktiv tushuntirishga yordam

beradi. Ayniqsa, KRS soatlarida bu vositalardan foydalanish o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirish va darslarni didaktik jihatdan boyitish imkonini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan ta'lim muhiti tarixiy tushunchalarni vizual va analitik tarzda anglashga zamin tayyorlaydi.

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik yondashuvlarni o'qituvchilarga yanada mukammal o'rgatish shart. Bunga misol tarzda FSMU modeli kabi fikrni dalillashga asoslangan uslublar darslarda bahs-munozaralar sifatini oshirishi, o'quvchilarning fikr yuritish madaniyatini shakllantirishini keltirish mumkin. Bu esa tarix fanida faqat faktlar emas, balki kontseptual tushunchalarni tahlil qilishga imkon beradi. Bunday metodikalar o'qituvchining analitik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Klafki nazariyasi kabi usullar yordamida ta'lim mazmunini va shaxsiy rivojlanishni uyg'unlashtirish zamon talabi hisoblanadi. Kategorik Bildung modeli asosida tarixiy mavzularni o'quvchilarning hayoti va fikr dunyosi bilan bog'lash, ularni mustaqil fikrlovchi shaxslar

sifatida tarbiyalash ta'limning asosiy vazifasiga aylanishi kerak. Bu yondashuv tarix fanining zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy masalalar bilan aloqadorligini kuchaytiradi va o'quvchilarni chuqur tafakkurga qilishga undaydi.

4. KRS tadbirlarining sifatini oshirishda texnologik ko'nikmalarga e'tibor zarur. O'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash malakalarini shakllantirish — bu KRS tadbirlarini takomillashtirishning zaruriy sharti. Ayniqsa, to'g'ri prompt yozish, AR texnologiyasidan metodik tarzda foydalanish va AI platformalarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini sezilarli oshirishga xizmat qiladi.

5. Tarix fanini metodik jihatdan takomillashtirish — ta'lim sifatini oshirishning asosiy omilidir.

Xulosalar shuni ko'rsatadiki, tarix fanida innovatsion vositalarni integratsiyalash dars jarayonini zamonaviy ijtimoiy kontekst bilan bog'lash imkonini beradi. Bu metodlar o'qituvchilarni nafaqat faktlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi USTOZ darajasiga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fiorella, L., Mayer, R. E. Learning as a Generative Activity: Eight Learning Strategies that Promote Understanding. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – P. – 226.
2. UNESCO. Digital Education in Central Asia. – Paris: UNESCO Publishing, 2022. – P. – 68.
3. Darling-Hammond L., Richardson N. Teacher learning: What matters? // Educational Leadership. – 2009. – Vol. 66, No. 5. – P. 46–53.
4. Maktablarda o'smirlarning ruhiy salomatligi va ruhiy-ijtimoiy farovonligi. – Toshkent: YUNISEF O'zbekiston vakolatxonasi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, 2022. – 56 b.
5. Gossard, J. M. Teaching History in the Time of Generative AI [Elektron resurs]. – URL: <https://www.historians.org/perspectives-article/empowering-citizens> (kirilgan sana: 2025.08.07).
6. Apriyanto A, Maharjan K, Zhang W. Implementation of Augmented Reality Technology in History Learning: Experimental Study // Journal of Computer Science Advancements. – 2024. – T. 2, № 4. – C. 222–230.
7. Boymirzayev X.K. Tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish. – Namangan: Namangan davlat universiteti, 2024. – 27 b.
8. Anne Helene and Hoyland Mork .The Why, what, and How, of History Education in Norwegian and Swedish History Curricula for Upper secondary schools (approximately 1920– 1960). Scandinavian Journal of History. 2024, VOL. 49, NO. 2. – P. 218–240.